



## O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASINI O'RGANISHNING AMALIY AHAMIATI (NAMANGAN VILOYATI QIPCHOQ SHEVALARI AREALI MAISHIY LEKSIKASI MISOLIDA)

**Mamatismoilova Xanifa Xayitmizrayevna**  
*Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek shevalarining, xususan, Namangan viloyati qipchoq shevalarining o'rganilishi bo'yicha fikrlar hamda ularning adabiy o'zbek tilining rivojlanishi va taraqqiy etishi, shevalar leksikasi o'rganilishining dolzarbligi, muhim ag'amiyati haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** areal lingvistika, shevashunoslik, dialekt va sheva, areallar, etnos, til muhiti.

**Аннотация.** В статье представлены мнения по изучению узбекских диалектов, в частности кыпчакских диалектов Наманганской области, а также развития и прогресса литературного узбекского языка, актуальности и важности изучения лексики диалектов.

**Ключевые слова:** ареальное языкознание, языкознание, диалект и диалект, ареалы, этнос, языковая среда.

**Annotation.** The article presents opinions on the study of Uzbek dialects, in particular the Kipchak dialects of the Namangan region, as well as the development and progress of the literary Uzbek language, the relevance and importance of studying the vocabulary of dialects.

**Key words:** areal linguistics, linguistics, dialect and dialect, areas, ethnicity, linguistic environment.

Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanishi uchun olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda o'zbek tilshunosligi oldiga qo'yilayotgan vazifalarini bajarishga to'liq imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, tilimizni har tomonlama o'rganish masalasiga bag'ishlangan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, prezidentimiz ta'biri bian aytganda, "...bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"<sup>1</sup>.

O'zbek dialektlari arealogiyasi sohasida ham u yoki bu shevaga xos bo'lgan xususiyatlarni chuqur tarixiy-etimologik jihatdan, bir qator til faktlari asosida puxta o'rganish ko'plab tarixiy-lingvistik muammolarni hal etish yechimi hisoblanadi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.  
– Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 23.



O'zbek tili dunyodagi eng ko'p sheva va lahjalarga ega bo'lgan tillardan biridir. Vaqt o'tgan sari shevalar va adabiy tilimiz o'rtasidagi farq kuchayib bormoqda. Ayniqsa, qipchoq lahjasidagi shevaga xos so'zlar unutilib bormoqda.

Qipchoq shevalaridagi so'zlarning ba'zilari qadimdan turmush tarzimizda qo'llanib, ommalashgan bo'lsa, ayrim so'zlar davrlar o'tishi bilan arxaiklashib qolgan. Eng qiziqarlisi, ayrim shevaga xos so'zlar yonma-yon joylashgan qishloqlarda ham bir-biridan fonetik va leksik jihatidan farq qiladi.

Hozirda bu boradagi ilmiy izlanishlarni davom ettirgan holda, qipchoq shevalariga xos so'zlarni o'rganish va lug'atlarini tuzish vaqtin yetib keldi.

Namangan viloyati qipchoq shevalari areali maishiy leksikasini tarixiy-qiyosiy nuqtayi nazardan o'rganish, ularning boshqa o'zbek shevalari hamda adabiy til bilan mushtarak va farqli xususiyatlarini ko'rsatish, tahlillar orqali olingan xulosalar natijasida ushbu xususiyatlarni yuzaga chiqaruvchi omillarini aniqlash va hudud maishiy leksikasiga tasnif berish kabilarga e'tibor qaratish hozirda o'ta muhimdir. Jumladan, nafaqat Namangan qipchoq shevalari, balki barcha shevalardagi o'zgachaliklarning hududlar etnik va tabiiy geografik xususiyatlariga bog'liqligini asosli yoritish, shevalarning adabiy tildan farqlanishini yuzaga keltiruvchi ijtimoiymadaniy omillarini aniqlash zaruriyati tug'ilmoqda.

Dunyo tilshunosligida arealogik tadqiqotlar negizida areal lingvistik konsepsiyalarning tadrijiy taraqqiyotini analiz va sintezlash natijasida dialektlarni umumiyl Tilshunoslikning bir aspekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq ekanligi isbotlandi. Binobarin, til sistemasini yaxlit o'rganishda dialekt va sheva areallarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Namangan viloyati hududidagi tub aholi sheva belgilariga ko'ra hozirgi o'zbeklarning qadimgi ikki yirik etnik guruhi – qarluq va qipchoq lahjasiga mansub. Bundan tashqari, bu dealektal arealda tojik, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, rus, tatar kabi millatlarga mansub aholi vakillari ham istiqomat qiladi.

Muayyan etnos tilida yuz berayotgan o'zgarishlar etnolingvistik jarayonlar sifatida talqin qilinadi. Zero, etnolingvistik jarayonlar tillararo munosabatlar, aloqalar va turli mustaqil tillarning bir-biriga o'zaro ta'sir etishi kabi jihatlarini ham qamrab oladi. Namangan shevalarining etnogenezisidagi ana shu jarayon turli qardosh va noqardosh til vakillarining bir-birlari bilan qadimdan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganliklarining amaliy natijasidir.

O'rganilayotgan dialektal hudud – Namangan viloyati sheva arealida ham etnoslararo til munosabatlari qadim davrlardanoq boshlangan va bu jarayon asosi quyidagi ikki yo'nalishda rivojlanib borgan: birinchi yo'nalishda tillararo qorishuv (metizatsiya holati) turkiy tilning turli lajhalarida so'zlashuvchi urug' va qabilalar ichida yuz bergen bo'lsa, ikkinchisida esa turkiy tilli xalqlar bilan turkiy bo'limgan etnoslarning tillari o'rtasida chatishuv (gibrizatsiyalashuv holati) sodir bo'lgan.

Turli millatlarning birikuvidan tarkib topgan Namangan viloyati aholisi uchun azaldan ikki tillilik xos bo'lgan. XIX-XX asr boshlarida vodiylarida o'zbek-tojik,



o'zbek-uyg'ur, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-qoraqalpoq ikki tillilik holatlari kuzatiladi. Natijada yuqoridagi ikki tillilik hodisasi va ularning tarqalish ko'lami hududda turlicha bo'lib, bu ijtimoiy hodisaning sodir bo'lishi etnik muhit bilan bevosa bog'liq bo'lgan.

Turkiy tillar va ulardagi dialektlarni o'rganish Chor Rossiyasi davrida boshlangan edi. O'zbek adabiy tili va o'zbek shevalarini ilmiy asosda o'rganish o'tgan asrning 20-yillaridan boshlangan, degan an'ana tarzidagi fikrlarga qo'shilgan holda o'z mulohazalarimizni bildiramiz. Aslida, turkiy va o'zbek tilining ilmiy asosda o'rganilishi Mahmud Qoshg'ariy davridan boshlangan va bu an'ana va tendensiyalarni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'ozi Bahodirxon, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Fitratlar davom ettirgan desak, haqiqatga ancha yaqin bo'ladiki, bizda hali hanuz sobiq sho'rolar ta'limoti saqlanmoqda.

Adabiy til me'yorlarini belgilash, imlo qoidalarini yaratish va takomillashtirish bilan birgalikda shevalarni o'rganish ham kuchayib bormoqda.

O'zbek shevalarini o'rganish bo'yicha E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, G'ozi Olim Yunusovlar<sup>2</sup> yozgan asarlar bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qtogani yo'q. Tillararo munosabatlar to'g'risida A.K.Borovkov, V.R.Reshetovlarning o'zbek shevalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida alohida fikrlar yuritilgan<sup>3</sup>.

O'zbek shevalari bo'yicha materiallar to'plash va tadqiq qilishda o'zbek dialektologlarining mehnati beqiyos. Ular mustaqil ilmiy yo'nalish – o'zbek shevashunosligining paydo bo'lish va rivojlanishiga ham nazariy, ham amaliy asos yaratishdi.

Ma'lumki, o'zbek tilining ko'p shevaliligi va ularning rang-barangligi bu tilni boshqa turkiy tillardan ajratib turadi. Buni o'zbek dialektologiyasida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari, unda jamlangan tarixiy-lisoniy dalillar to'la tasdiqlaydi. Haqiqatan ham, o'zbek xalqining tarixiga nazar tashlasak, o'beklarning bir qismi bilan uyg'urlar, yana bir qismi bilan qozoq, qoraqalpoq, qirg'izlar, shuningdek, o'zbek bilan turkmanlar orasida genetik yaqinlik bo'lganligi shubhasiz. Bu esa, turkiy xalqlarning tillari orasidagi umumiyy, o'xshash tomonlarni yuzaga keltirgan. Bundan tashqari, o'beklar o'tmishda turkiy bo'limgan etnik guruhlar bilan ham yaqin munosabatda bo'lganki, turli iqtisodiy va madaniy aloqalar, bir hududda qo'shni yoki aralash holda yashash jarayonining sodir bo'lishi o'zbek tili va o'zbek shevalarining o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Buni o'zbek tili va o'zbek shevalari leksikasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlari va maydonga kelgan nazariy asoslar tasdiqlab turadi. Sh.Shoabdurahmonovning o'zbek shevalari leksikasini o'rganishga bag'ishlab yozgan asarlari bu sohaga qo'yilgan dastlabki qadam edi<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык (к современной стад узбекского языкового строительства). Ташкент, 1933. – 45 с.; Юдахин К.К. Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1958. – №1. – С. 31-35; Юнусов Ф.О. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқувўздавнашр, 1936. – Б.36.

<sup>3</sup> Боровков А.К. Узбекский говоры Наманганской области. – Ташкент, 1963; Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1966, – №1. – Б. 3-14.

<sup>4</sup> Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Тошкент, 1962; Ўзбек шевалари, улар ҳакида умумий ма'lumot // Ўзбек халқ шевалар луғати. – Тошкент, 1971.



O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati Chust, Kosonsoy, Namangan shaharlari hamda o'n ikkita: Davlatobod, Kosonsoy, Uchqo'rg'on, Uychi, Norin, Yangiqo'rg'on, Chortoq, Namangan, To'raqo'rg'on, Mingbuloq, Chust, Pop tumani kabi ichki ma'muriy hududlar sheva arealida turli tillar hamda o'zbek tilining qarluq va qipchoq lahjalari iste'moldadir.

Viloyat shevalari va ularning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatic xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bir qator tadqiqotlarning<sup>5</sup> mavjud bo'lishiga qaramay, uning barcha hududiy shevalari lingvistik jihatdan tahlilga tortilib, to'liq o'rganilgan emas.

O'zbek tilshunosligidagi Namangan shevalari va ularning leksik qatlami tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda, asosan, Namangan shahar va Uychi tumani shevasining lingvistik xususiyatlari kengroq o'rganilganligi kuzatiladi. Shu bilan birga, Namangan viloyatining Chortoq, Pop, Uchqo'rg'on va Namangan tumani shevalari ham qisman tadqiqot obyekti bo'lgan. Viloyatning boshqa sheva areallari batafsil o'rganilmaganligi uchun ular haqida fikrlar kam. O'rganilgan sheva areallari ham tasviriy asoslarda o'rganilgan.

Viloyatning ma'muriy markazi bo'lgan Namangan shahar shevasining o'ziga xos shakllanish jarayonida nafaqat turkiy, balki fors-tojik tilining fonetik, leksik va grammatic belgilarining ta'sirini ham yaqqol ko'rish mumkin.

Namangan shahar shevasining mazkur jihatlari va boshqa o'zbek shevalaridan uning tubdan farq qiluvchi o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, G.O.Yunusov kabi olimlar o'rgandilar, tasnifladilar. Shevaning lingvistik xususiyatlari haqida asosli to'xtamlarga kelindi.

Mahalliy tilning turkiy va turkiy bo'lman til unsurlari orqali tipologik va areal-lingvistik metodlar orqali, etnogenezisining manbalari ilmiy-faktik materiallarga asoslanib va ularga tayangan holda o'rganilishi natijasida sheva haqidagi mavhum, noaniq holatlar oydinlashdi<sup>6</sup>.

Namangan shahar shevasining fonetik va morfologik xususiyatlari S.Otamirzaeva va S.Tulyakovlar nomzodlik dissertatsiyalarida<sup>7</sup> tadqiq etilgan. Uychi shevasining lisoniy xususiyatlarini A.Y.Aliev<sup>8</sup> o'rgandi.

<sup>5</sup> Алиев А.Ю. Уйчинский говор узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1960; Наманганская группа говоров узбекского языка. Автореф. дисс. ...докт. фил. наук – Ташкент, 1975; Атамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говора узбекского языка. Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Л., 1963; Экспериментально-фонетическое исследование наманганскоого говора узбекского языка.

Ташкент: Фан, 1974. Тулаков С. Морфологические особенности наманганскоого говора. Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Ташкент, 1965; Шарипов О. Поп шевасининг морфологияси. Ученые записки АГПИ. IV. – Андижан, 1957.

<sup>6</sup> Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык (к современной стад узбекского языкового строительства). – Ташкент, 1933. – С. 20-21; Боровков А.К. К характеристике узбекских "умлаутный" или "уйгуранизованных" говоров. Сб. Белек (С.Е. Малову).– Фрунзе, 1946. – С.29-30; Узбекские говоры Наманганской области. – Ташкент, 1963; Решетов В.В. О наманганскоом говоре узбекского языка. Сб. Академику В.А.Гордлевскому. – М., 1953. – С. 216.

<sup>7</sup> Атамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говора узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Л., 1963; Тулаков С. Морфологические особенности наманганскоого говора Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Ташкент, 1965.



Namangan qipchoq shevalari areali maishiy leksikasiga doir ayrim masalalardagi bat afsil bo'lmanan ma'lumotlarni dialektolog olimlarimiz A.Y.Aliev<sup>9</sup>, S.Tulyakov<sup>10</sup>, O.Sharipov<sup>11</sup> ishlarida uchratish mumkin.

Professor A.K.Borovkov "umlautli" yoki "uyg'urlashgan" shevalar tasnifiga doir maqolasida Namangan, Uychi, Chortoq, Koroskon, Uchqo'rg'on, Qayqi hududi shevalaridagi umlaut hodisasingning vujudga kelish sabablarini misollar bilan izohlagan. Bundan tashqari, Uychi qishlog'i vakillaridan yozib olgan bir necha maqollarni ilova qilgan<sup>12</sup>.

Professor V.V.Reshetov "O'zbek tilining Namangan shevasi haqida" maqolasida Namangan shahar shevasining tarixiy shakllanishi, uning fonetik va morfologik xususiyatlarini birinchilardan bo'lib bat afsil ilmiy asoslab berishga harakat qildi<sup>13</sup>.

Jahon tilshunosligi e'tirof etganiday, har qanday milliy tilining birinchi pog'onasi lajja va shevalar hisoblanadi. Ularni har tomonlama chuqur o'rganish asosida hududning dilektal lisoniy tabiat ochiladi. Bu esa millat adabiy tilining rivojlanishiga, uning sath birliklari o'ziga xos tarzda mukammallashishiga xizmat qiladi. Sheva va lahjalar faqat lingvistik materialgina emas, ayni paytda millatning tarixi, madaniyati, milliy belgi, xarakter-xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim bir manbadir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi global lashuv sharoiti va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tilga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shuning uchun ham shevalarni o'z vaqtida ilmiy asoslar orqali o'rganish va ular to'g'risida muayyan xulosalarga kelish har doimgidan-da dolzarblik kasb etmoqda.

Xullas, o'bek adabiy tilining ozuqasi bo'lgan xalq shevalarini o'rganish "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va Qarorlari asosida "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi" da ham belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida shevashunoslik markazi va "O'zbek shevalari tadqiqoti va ta'limini muvofiqlashtirish kengashi" tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda markaz bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur amalga oshirilgan ishlarning milliy tilimiz sofligini saqlash, uni asl holicha rivojlanish, dialektologiya, lingvistik geografiya va areal tilshunoslik sohalarini ivojlantirish masalalariga qaratilganligi ham shevalarning o'rganilishi naqadar muhim vazifa ekanligini ko'rsatib turibdi. Darhaqiqat, millat tilining taraqqiyoti va uni rivojlanish masalalari hamisha va har vaqt o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Shu nuqtayi nazardan

<sup>8</sup> Алиев А.Ю. Уйчинский говор узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1960; Наманганская группа говоров узбекского языка. Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Тошкент, 1975.

<sup>9</sup> А.Ю.Алиев Наманган диалекти лексикасидан кузатишлар. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент, 1966.

<sup>10</sup> С. Туляков. Морфологические особенности наманганского говора. Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Тошкент, 1965.

<sup>11</sup> Шарипов О. Поп шевасининг морфологияси. Ученые записки АГПИ. IV – Андижан, 1957.

<sup>12</sup> Боровков А.К. К характеристике узбекских "умляутных" или "уйгуранизованных" говоров // Белек – Малову. – Фрунзе, 1946. – С. 29-31.

<sup>13</sup> Решетов В.В. О наманганском говоре узбекского языка. Сб. Академику В.А.Гордлевскому. – М., 1953. – С. 216.



tilshunoslik sohalarini tadqiq etishga etnolisoniy, mental, millat va shaxs ma'naviyati, lingvomadaniy jihatdan yondashish talab darajasiga ko'tarildi. Zero, til doimo o'sishda, rivojlanishda bo'lgan dinamik hodisadir.